



**Tadqiqot** **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MART  
№26**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
14 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-14**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-14**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)





### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

|                                                                                                                                                            |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>1. Rustamova Shaxnoza Ramazonovna</b><br>O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI .....                                                              | 7  |
| <b>2. Sobirova Ruzigul Komilovna</b><br>CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O'QITISH METODLARI .....                                                 | 9  |
| <b>3. Qulmamatova Dilorom Abduvohidovna</b><br>ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANIB UMUMTA'LIM<br>MAKTABLARDA MEHNAT FANINI O'QITISH TAMOYILLARI ..... | 10 |
| <b>4. Ergasheva Gulnora Abdulxaevna</b><br>UMUMTA'LIM MAKTABLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA<br>O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....   | 12 |



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### О'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

**Rustamova Shaxnoza Ramazonovna,**  
Qiziltepa tumanidagi 12\_maktabning  
biologiya fani o'qituvchisi.

**Annotasiya:** Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham biologiya fanini o'qitishga bo'lgan e'tibor kundan – kun kuchayib bormoqda. Mazkur maqolada maktablarda biologiya fanini o'qitishni metodlar asosida tashkil etishning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Biologiya o'qitish metodikasi, organik olam evolyutsiyasi, modulli ta'lim, didaktika, hujayra, moddalar va energiya almashinuvi, irsiyat va o'zgaruvchanlik, organik olam evolyutsiyasi.

Respublikamizda biologiya o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. O'zbekistonda sobiq Ittifoq markazida nashr qilingan darsliklar joriy etilgani va undagi ko'pgina o'quv materiallar notanish bo'lgani sababli, o'quvchilarning bilim darajasi past edi. Shu sababli respublika metodist olimlarining e'tibori maktab botanika, zoologiya, umumiy biologiya darslarida mahalliy materiallardan foydalanish muammosini yechishga qaratildi. (Ye.M.Bel'skaya, A.Ye.Suxarev, A.T.G'ofurov). Shu bilan bir vaqtda botanik, zoologik bilimlarni maktab tajriba yer uchastkasida va tirik burchakgida olib borilayotgan amaliy ishlar bilan bog'lash masalalari tadqiq qilindi (M.Jabborov, T.Isxaqov, X.Shokirov). 1961 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (Hozirgi ped. universitet)da "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasini tashkil qilindi. Mazkur kafedrani tashkil etilganligi bir tomondan yuqori malakali metodist olimlarni tayyorlashga, ikkinchi tomondan biologiyani o'qitishdan turli mavzular bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga imkon yaratdi. Biologiya o'qitish metodikasi kafedrasini faqat O'zbekiston uchun emas, balki qardosh Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari uchun ham 15 dan ortiq, yuqori malakali metodist olimlar fan nomzodlari yetishtirib berdi. Metodist olimlardan I.A.Norbekov, M.Maxkamov, A.T.G'ofurov botanika, zoologiya fanidan o'tkaziladigan ekskursiyalarning xillari, ularni o'tkazish metodikasi, unda o'quvchilar tomonidan olib boriladigan kuzatishlar, tajribalarni hal qildilar. Maktab botanika kursini o'qitishga bo'lgan didaktik talablar, botanika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari Ye.M.Bel'skayaning "Botanika didaktikasi" ko'llanmasida o'z ifodasini topdi. M.Ortiqov esa o'zining maktablarda o'tkazgan tajribalariga asoslanib, biologiya darslarida ekran vositalari (o'quv filmlari, diafilmlar, diapozitivlar)dan foydalanish o'quvchilarda biologik o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini o'ttirishiga, ularning bilimini mustahkam bo'lishida alohida ahamiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. J.Tolipova darslarni xilma xillashtirish, noan'anaviy darslar (seminar, konferensiya, muammoli munozarali) o'tkazish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, mustaqilligini rivojlantirishda, puxta bilim egallashlarida katta rol o'ynashini ko'rsatib berdi. Maktabdagi bilimlar tushunchalardan tashkil topgan. 1950 yillardan boshlab N.M.Verzilin boshliq bir guruh rus metodistlari xususiy biologik tushunchalarni tadqiq qildilar. Ulardan farqli ravishda 1970 yildan boshlab A.T.G'ofurov umumibologik tushunchalarni, xususan, "hujayra", "moddalar va energiya almashinuvi", "irsiyat va o'zgaruvchanlik", "organik olam evolyutsiyasi" kabi tushunchalarni o'quvchilar qanday o'zlashtirishi haqida kuzatish, tajriba ishlarni olib bordi va bu soxada "umumiy biologik tushunchalarni shakllantirish" degan mavzuda o'quv metodik qo'llanma yaratdi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi o'quv fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish to'g'risida A.M.Qodirovning o'quv qo'llanmasi maktablar hayotida keng qo'llanilmoqda. Mahalliy materiallarga asoslangan holda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni qanday shaklda mazmunda o'tkazish kerakligi A.T.G'ofurov,



S.K.Xabirovalarning qo'llanmasida yoritilgan. Qo'llanmada ayrim o'quvchilar, o'quvchilar guruhi hamda ommaviy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning xillari, ularning mazmuni va o'zaro bog'liqligi maktablarda o'tkazilgan pedagogik tajribalar asosida ochib berilgan. Keyingi paytlarda ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida suv, havo, tuproq turli chiqindilar bilan ifloslanishi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'simliklar va hayvonotlar, odamlar hayotiga xavf solmoqda. Shu o'rinda maktablarda olib boriladigan ekologik ta'lim tarbiyaga nihoyatda ahamiyat berish zarurligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida respublika metodistlarining diqqat e'tibori o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirgan masalasiga qaratildi. Bu o'rinda biologiyadan noan'anaviy darslar o'tkazishga (xamkorlikda o'qitish konferensiya darslari modulli ta'lim va h) qaratildi. (J.Tolipova, A.T.G'ofurov). Republikamiz metodistlari biologiyaning faqat umumiy o'qitish metodikasi bilan emas, balki xususiy metodikasi bilan ham shug'ullana boshladilar. (J.Tolipova va boshqalar)

Xulosa qilib aytganda, maktab biologiya kursida chet tillardan olingan ko'pgina atamalar mavjud. Mazkur atamalarning tub ma'nosini bilish biologik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yaqindan ko'mak beradi. O'zbek biolog olimlari botaniq, fiziologik, biologik atamalarning izohli lug'atini tuzishga muvaffaq bo'ldilar. (M.Nabiyev, Sh.Qurbanov, A.Zikiryayev, S.S.Fayzullayev). Mazkur izohli lug'atlardan foydalanish o'quvchilar bilimini ongli bo'lishida ijobiy natija berishi muqarrardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.T.G'ofurov, Tolipova J. «Umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari», «Toshkent» 1990 y.
2. J.Tolipova, A.T.G'ofurov «Biologiyadan yangi pedagogik texnologiyalar» 2002 y .
3. Yu.N.M.Verzilin, M.Korsunskaya «Biologiya o'qigishning umumiy metodikasi», «O'qituvchi» 1983 y.
4. J.Tolipova, A.T.G'ofurov «Biologiya o'qitish metodikasi» metodik qullanma. Akadem litsey va kasb hunar kollejlari uchun. O'qit. 2004 y.





## CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O'QITISH METODLARI

**Sobirova Ruzigul Komilovna,**

Buxoro viloyati Olot tumanidagi 22 maktab  
chizmachilik fani o'qituvchisi .

**Annotasiya:** Hozirgi kunda davlatning ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlarida san'atshunoslik sohasini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqolada chizmachilik darslarini tashkil qilish va o'qitish metodlarining ahamiyati ochib beradi.

**Kalitsa'zlar:** Dars turlari, aralash dars, innovatsiya, interaktiv metod, og'zaki metod, ko'rgazmali metod, amaliy metod, geometrik tushunchalar, proeksion tushuncha, texnik tushunchalar.

Har qanday fanni o'qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar: konsepsiya, ta'limning metodik tizimi va ular ta'siri natijalarini baholashdan iborat.

8- va 9-sinflarda chizmachilik fanini o'qitish o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda hayotiy va mehnat tajribalaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quvchilar bu vaqtga kelib bilim olishga ongli ravishda, ma'lum maqsad bilan intiladilar. Shuning uchun o'qituvchi o'z oldidagi vazifalarni tahlil qilib, har bir darsning eng optimal tuzilishini o'ylab, dars maqsadlariga to'liq javob beradigan tuzilishni topishga harakat qilishi kerak. Navbatdagi darsning muvaffaqiyati ko'pincha oldin o'tilgan darslar qatorida uning qanday o'rin tutishiga, o'quvchilar egallagan bilim va amaliy ko'nikmalariga, hamda ularga tushuntiriladigan bilimning hajmi va mazmuniga bog'liq. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashlari darajasi, darslik yoki ilmiy-ommabop va texnik adabiyotlardan mustaqil o'qib o'rganish imkoniyatlariga tayanadi.

Pedagogikada darslarning har xil turlari va o'qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan:

- yangi materialni o'rganish darsi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darsi;
- takrorlash-umumlashtirish darsi;
- aralash yoki kombinatsiyalashgan dars.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi – *aralash* yoki kombinatsiyalashgan *dars*dir. Bunda o'qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan amaliy ishlarni bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o'quvchilarga o'quv adabiyotlaridan foydalanib olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya – inglizcha so'z bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. *Interaktiv metodlar* – bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

**Xulosa qilib aytganda,** chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U Ro'ziev E.I., Ashirboyev A.O., Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. – T., 2010
2. Isaeva M.Sh. Chizmachilikdan topshiriqlar. – T., 1992
3. Roytman I.A. Metodika prepodavaniya chercheniya. – M., 2000
4. Pavlova A.A., Korzinova E.I., Grafika v sredney shkole. – M., 1999



## ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANIB UMUMTA'LIM MAKTABLARDA MEHNAT FANINI O'QITISH TAMOYILLARI

**Qulmamatova Dilorom Abduvohidovna**

Sirdaryo viloyati Guliston shahar

11-umumta'lim maktabining Texnologiya fan o'qituvchisi

Tel: 97 834 40 50

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanib umumta'lim maktablarda mehnat fanini o'qitish tamoyillari va texnologiya va kasb ta'limining tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish uchun o'qitishning mazmuni, shuningdek, o'quv ishlarining tashkiliy shakl va metodlarini qo'llash amaliyotga joriy qilish masalalari hususida muloxaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim sifati, xalqaro baxolash, o'quv ustaxonalari, metodik vositalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son qarori bilan tasdiqlangan «Texnologiya» fanidan o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va Xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 3 iyundagi «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida»gi 190-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'quvchi-yoshlarni kelgusida unumli mehnat faoliyatiga tayyorlash, o'zlarini qiziqtirgan kasb-hunarlarni egallashga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yish asosan umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi o'quv fani zimmasiga tushadi. O'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnatkashlarga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash texnologiya fani va kasb ta'limining tarbiyaviy xususiyatidir. Texnologiya va kasb ta'limining tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish uchun o'qitishning mazmuni, shuningdek, o'quv ishlarining tashkiliy shakl va metodlarini qo'llash samarali bo'ladi. Har bir taraqqiyot bosqichiga o'tishning sharti faqat mehnat unumdorligini muntazam oshirish va moddiy ne'matlar mo'l-ko'lligini yaratishdan iborat bo'lib qolmasdan, yosh avlodga yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan ham iborat. Bu eng avvalo jamiyat manfaatlari yo'lida qilinadigan jarayonda shakllanadi. Texnologiya o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarda ustaxonadagi asbob-uskunalarni asrash, xom ashyo materiallaridan tejamkorlik bilan foydalanish hissi tarbiyalanadi. O'quv ustaxonalaridagi mehnat madaniyati ish o'rnini tashkil etish va o'quv-mehnat mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirish; texnologiya fani va kasb ta'limi darslarida qo'l asboblari bilan bir qatorda turli moslamalardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega, negaki ular faqat o'quvchilarning ish sifatini yaxshilab qolmasdan, ayni vaqtda mehnat unumdorligini ham oshiradi. O'qituvchining mehnat va hunar usullarini ko'rsatish vaqtidagi shaxsiy namunasi o'quvchilar uchun kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib hisoblanadi. Texnologiya fani va kasb ta'limida amaliy mashg'ulot jarayonida mavzuning mazmunini ochib berishda, mehnat va kasb ta'limi tarbiyasining maqsadlari, vazifalari amalga oshiriladi. Demak, amaliy mashg'ulot deganda o'quvchilarning o'quv materialini faol, ongli va mustahkam o'zlashtirishi maqsadida texnologiya o'qituvchisi rahbarligida amalga oshirilishi, ham jamoa, ham yakka tartibdagi ish turlarini o'z ichiga oladigan o'quv-mehnat faoliyatini tashkil etishni tushunish kerak. Hozirgi kunda o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirish uchun o'quv jarayonini turli usullarda tashkil etish zaruriyati tug'ildi. Chunki, o'quvchi o'zini qiziqtirgan savollariga internet tarmoqlari orqali javoblar echimi variantlarini izlab topish imkonini bermoqda. Shunday bo'lsa-da, o'quvchi shaxsi o'quv fanlari orqali bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lsagina, shu faoliyatning mazmun-mohiyatini tushunib etadi.

Mehnat ta'limi fanini o'rganishda umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining maqsad va vazifalarini, fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy printsiplarini va uning mazmunini anglab olishi, maktab ustaxonalarida ta'lim tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasini egallashi kerak. Mehnat ta'limi fanining alohida roli shundaki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga insoniylik munosabatni tarkib topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini mazmuni va metodikasini aniqlash. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fanining asosiy vazifalaridan biri umumta'lim maktablarida mehnat ta'limini integratsiyalashtirilgan, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni amalga oshirishdan iborat.



Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktab o'quvchilarini hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlari bilan tanishtirish fan asoslari bo'yicha fanlar doirasi bilan chegaralanmasligi lozim. Shuning uchun ham maktab o'quv rejasiga mehnat ta'limi fani kiritilgan. Ta'lim jarayonining politexnik yo'nalishini ta'minlash uchun ayrim aniq ishlab chiqarish jarayonlari misolida hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy asoslari o'rganiladigan didaktik vaziyatni vujudga keltirish talab qilinadi. Mehnat ta'limi bosqichlari orasidagi izchillik politexnik ta'lim mohiyatida katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda buyuk mutafakkirlardan A.Navoiy: — Umrni zoya etma mehnat qil, mehnat saodatni kalitidir bil. Shunday ekan, biz har birimiz hayotdan ta'lim olib, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodlarni mustaqil davlatimizning ishonchli a'zolari qilib tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosidan foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. —T.; 1992 y.319 bet
2. Mehnat ta'limidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun dastur. —ta'lim taraqqiyoti, maxsus son 2009 y.
3. Mehnat ta'limi bo'yicha uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi T.; -2010.
4. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. 2008 y. 180 b.



## UMUMTA'LIM MAKTEBLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Ergasheva Gulnora Abdulxaevna**

Sirdaryo viloyati Guliston tuman

№16 umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarda tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va tasviriy san'at darslarini tashkil etishda turli uslublarni qo'llanishidan qat'iy nazar o'kitish didaktikasini tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, ketma-ketlik, ko'rgazmalilik, nazariyot bilan amaliyotni birligi kabi printsiplarga doimo asoslanishi xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot kommunikatsiya, tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, multimedia, mediatexnologiya.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinflar ta'limi alohida bosqich, alohida etap bo'lib, bu davr bola shaxsini eng kuchli rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki, bu davr bolalarni 5-6 yoshidan 10-11 yoshgacha bo'lgan o'sish davri bo'lib, unda bola shaxsi o'zining etuklik va o'smirlik davriga ilm, tafakkur, tasavvur, malaka va ko'nikmalar yig'adi. Chunki, xuddi shu davrda bola shaxsining ko'rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o'rganish davrining eng shiddatli bosqichi bo'ladi.

Yuqoridagi ancha murakkab va mas'uliyatli maqsaddan kelib chiqilgan holda tasviriy san'at fani o'z oldiga: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tabiat-jamiyatdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ko'rish, ularni ilmiy asosda idrok etishga o'rgatish, o'quvchilarni badiiy didini, estetik tushunchasini, materialistik dunyoqarashini, go'zallik olamini va ijodiy iste'dodini, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash, narsa, voqea, hodisalar tasvirini - rasmini chiza bilish, ularni ijodkorlik asosida bajarish bo'yicha malaka-ko'nikmalar hosil qili, rassomchilikning barcha tur va janrlaridagi san'at asarlarini ko'ra bilish-ni, idrok etishni, tushunib, ularni past saviyadagi, qalbaki rasmlardan farqlay olish ko'nikmalarini berish, bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarga rasm chizishni o'qituvchilarga o'rgatishning eng oson, qisqa, ilmiy asosda bo'lishining zamonaviy uslubi, didaktik printsiplari bilan tanishtirish kabi mazmunga ega bo'lgan vazifalarni qo'yadi. San'atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Ma'lumki, har bir jamiyat formatsiyasi san'at rivojiga o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy pozitsiyasida turib, ma'lum darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'sha o'z davri talabida xizmat qiladi. San'at qaysi jamiyatga, kaysi sinfga va millatga xizmat qilishi va bu sinf va millatning iqtisodiy va siyosiy yo'lida xizmat qilishiga qarab, uni sinfiy vamiylik xususiyati belgilanadi. Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boy-ituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli faktor bo'lib, xizmat qiladi. Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilarining nazariy va amaliy, metodik tayyorgarligi darajasini orttirish; ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarini rivojlantirish; tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilarida dars jarayonida samarali metodlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish. I-VII sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi quyidagicha Pedagogika nazariyasi va tarixida ma'lumki har bir dars metodikasi jahon pedagogikasi tajribalariga suyanadi. Dars metodikasining to'g'ri tanlash eng avvalo pedagogika nazariyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi o'zi dars metodikasini belgilashda o'kitishning didaktik printsiplaridan kelib chiqqan xolda dars materialini oson, qisqa, ilmiy asosda o'quvchiga etkazadigan eng samarali metodini tanlaydi. Tasviriy san'atni o'kitishda og'zaki bayon etish, savol-javob va amaliy ishlarni tashkil etish va ko'rgazmalilik metodlaridan foydalaniladi. Maktabda tasviriy san'at fanini o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi rasm chiziladigan narsa, ob'ekt voqea-hodisalar yoki o'rgatilayotgan asar haqida o'quvchilarga og'zaki ma'lumotlar beradi. Bu og'zaki bayon etish metodida talqin etilib, o'qituvchi darsning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda dars mazmunini og'zaki bayon





etish uslubida amalga oshiradi. Tasviriy san'at darsi o'z xarakteriga ko'ra har bir dars materialini ko'rgazmalar vositasida, ko'rgazmali o'qitish uslubiyotida amalga oshiradi. O'qituvchining ko'rgazmalilik uslubida amalga oshirgan darsi o'quvchilarga puxta bilim berish imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarining barchasida amaliy ishlar bajariladi. Shu boisdan o'qituvchilar amaliy ishlar metodidan ham foydalanadi. I-VII sinflarda rasm chiziladigan natura va natyurmortlarda rasmini chizish yoki tematik kompozitsiyalar yaratishning ish mazmuni ancha murakkablashib boradi. Bular o'qituvchidan dars jarayonida qo'llanilayotgan uslublarini o'zgartirib goh bir, goh ikkinchi - boshqa uslublardan foydalanishni taqazo etadi. Ammo har bir darsda og'zaki bayon etish va savol-javob metodidan keng foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at darslarini tashkil etishda turli uslublarni qo'llanishidan qat'iy nazar o'qitish didaktikasini tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, ketma-ketlik, ko'rgazmalilik, nazariyot bilan amaliyotni birligi kabi printsiplarga doimo asoslanadi. Chunki, dars uslublarini barchasi o'qitish didaktikasi asosida amalga oshiradi. Didaktika sinf - dars sistemasini ilmiy asosi bo'lib, didaktika talabiga javob bermaydigan dars o'z maqsadiga erisha olmay va oldiga quygan vazifani bajarmaydi. Shuningdek, tasviriy san'atning har bir dars mashg'uloti predmetlararo bog'lanishi printsipli asosida ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdirasilov S.F., Nurtoev O'.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish texnologiyasi. – T.: TDPU, 2017. -11-b.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: «Moliya», 2003.
3. Boymetov B. Qalam tasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 1997. -55-56-b.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

---